



JISMONIY SHAXSLARNI BANK KREDITLASHNING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI

THE ECONOMIC ESSENCE AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF BANK LENDING TO INDIVIDUALS

¹Jumayev Azamat
Qurbonali o'g'li

¹Tashkent International University, doktorant (PhD).
G-mail: azamatjumayev20.06.1993@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashning iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari klassik hamda zamonaviy iqtisodiy yondashuvlar asosida tizimlashtirilgan. Naturalistik va kapital yaratish qarashlari, neoklassik va keynscha yondashuvlar, monetarizm, axborot asimmetriyasi, moliyaviy beqarorlik, hayot sikli va doimiy daromad gipotezalari, shuningdek, xulq-atvor iqtisodiyoti va raqamli kreditlash konsepsiyalari qiyosiy tahlil qilingan. Uy xo'jaliklarining kreditga bo'lgan talabi daromad va iste'molning vaqtlararo nomutanosibligi, likvidlik cheklovlari hamda kredit riskini baholash mexanizmlari bilan bog'langan holda izohlangan. O'zbekiston bank tizimining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida jismoniy shaxslarga kreditlar ulushining o'sishi va qarz yukiga doir dolzarb holatlar yoritilgan. Maqolada jismoniy shaxslarni bank kreditlashning raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan skoring va mas'uliyatli kreditlash tamoyillarini qamrab oluvchi takomillashtirilgan mualliflik ta'rifi taklif etiladi.

Eng. - This article systematizes the economic essence and theoretical foundations of bank lending to individuals on the basis of classical and modern economic approaches. Naturalistic and capital-creation views, neoclassical and Keynesian approaches, monetarism, asymmetric information, financial instability, the life-cycle and permanent-income hypotheses, as well as behavioral economics and digital lending concepts are comparatively analyzed. Household demand for credit is explained through intertemporal mismatches between income and consumption, liquidity constraints, and mechanisms of credit-risk assessment. Official statistics on Uzbekistan's banking system are used to highlight the growth of lending to individuals and recent developments in household debt-service burdens. The article proposes an improved authorial definition of bank lending to individuals that incorporates digital technologies, automated scoring, and responsible-lending principles.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ jismoniy shaxslarni kreditlash, iste'mol krediti, kredit nazariyalari, hayot sikli gipotezasi, doimiy daromad, axborot asimmetriyasi, moliyaviy inklyuziya, qarz yuki, mas'uliyatli kreditlash, raqamli skoring.

❖ retail lending, consumer credit, credit theories, life-cycle hypothesis, permanent income, asymmetric information, financial inclusion, debt burden, responsible lending, digital scoring.

Kirish.

Jismoniy shaxslarni kreditlash tijorat banklarining chakana biznesida muhim o'rin tutib, uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari, uy-joy sotib olish, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa uzoq muddatli ehtiyojlarini moliyalashtirish imkoniyatini kengaytiradi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil 1-yanvar holatida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i 39 934 mlrd so'mni, jami kredit qoldig'i esa 211 581 mlrd so'mni tashkil etgan [1]. 2024-yil 1-fevral holatida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar 149 894 mlrd so'mga, jami kreditlar esa 469 600 mlrd so'mga yetgan [2]. Hisob-kitobga ko'ra, mazkur davrda jismoniy shaxslar kreditlarining jami kredit portfelidagi ulushi qariyb 18,9 foizdan 31,9 foizgacha oshgan.

Mazkur tendensiya jismoniy shaxslarni kreditlashning iqtisodiy mazmunini faqat bank mahsuloti sifatida emas, balki uy xo'jaligi moliyasi, iste'molning vaqtlararo taqsimoti, kredit riski, moliyaviy barqarorlik va raqamli transformatsiya bilan uzviy bog'langan iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida tadqiq etishni talab qiladi. Kredit olish imkoniyati likvidlik cheklovlarini yumshatib, farovonlikni oshirishi mumkin; biroq qarzning haddan tashqari ko'payishi qarz yukining ortishi va moliyaviy zaiflikni kuchaytirishi ehtimolini ham yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi jismoniy shaxslarni bank kreditlashning iqtisodiy mohiyatini klassik va zamonaviy nazariy qarashlar asosida tizimlashtirish, mavjud ilmiy yondashuvlarning mazmuniy chegaralarini aniqlash, takomillashtirilgan mualliflik ta'rifini shakllantirish hamda kreditning uy xo'jaligi farovonligiga ta'sir mexanizmini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Shu maqsadda kredit nazariyalarining evolyutsiyasi, uy xo'jaliklari moliyasi, axborot asimmetriyasi, xulq-atvor omillari, makroprudensial yondashuvlar va raqamli kreditlash bo'yicha

ilmiy natijalar o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Kreditning iqtisodiy tabiatiga doir dastlabki tizimli qarashlar klassik siyosiy iqtisod doirasida shakllangan. A. Smith kredit va bank vositachiligini mavjud kapitalning samaraliroq harakatini ta'minlovchi mexanizm bilan bog'lagan [3], D. Ricardo esa pul, bank va kapital harakatining foiz hamda qiymat jarayonlari bilan o'zaro aloqasiga e'tibor qaratgan [4]. Ushbu yondashuvlar keyingi adabiyotlarda kreditning, avvalo, mavjud resurslarni qayta taqsimlash funksiyasini ta'kidlovchi naturalistik qarashlarning nazariy negizi sifatida talqin qilinadi.

Bunga muqobil ravishda J. Law bank kreditining pul va to'lov vositalari hajmini kengaytirish imkoniyatiga urg'u bergan [5]. H.D. Macleod bank krediti va depozit operatsiyalarining iqtisodiy muomaladagi faol rolini batafsil yoritgan [6]. K. Wicksellning tabiiy va bozor foiz stavkalari haqidagi nazariyasi [7] hamda I. Fisherning vaqtlararo tanlov konsepsiyasi [8] kreditga talabni kelajakdagi daromad, joriy iste'mol va foiz stavkasi o'rtasidagi nisbat bilan izohlash uchun muhim nazariy asos yaratdi.

J.M. Keynes foiz stavkasini likvidlikka afzallik berish va pul taklifi o'zaro ta'siri orqali tushuntirib, kredit-pul sharoitlarining yalpi talab va iqtisodiy faollikka ta'sirini ko'rsatgan [9]. M. Friedman va A.J. Schwartz monetar yondashuv doirasida pul-kredit omillarining makroiqtisodiy tebranishlar va narxlar barqarorligi uchun ahamiyatini tarixiy ma'lumotlar asosida asoslagan [10]. Bu nazariyalar jismoniy shaxslarni kreditlashni faqat alohida qarz oluvchi darajasida emas, balki umumiy pul-kredit sharoitlari bilan bog'liq holda tahlil qilish zaruratini ko'rsatadi.

Zamonaviy kredit bozorini tushuntirishda axborot asimmetriyasi alohida o'rin egallaydi. J.E. Stiglitz va A. Weiss foiz stavkasining oshishi qarz oluvchilar tarkibi

hamda ularning xatti-harakatiga ta'sir qilishi sababli banklar kreditni narx orqali emas, ayrim hollarda miqdor orqali ratsionlashini ko'rsatgan [11]. Mazkur natija qarz oluvchini saralash, kredit skoringi, ta'minot va monitoring mexanizmlarining nazariy zaruratini tushuntirishga xizmat qiladi. H.P. Minsky esa kredit ekspansiyasi davomiy barqarorlik sharoitida moliyaviy tuzilmaning zaiflashishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlagan [12].

Uy xo'jaligi qarzlanishini bevosita tushuntiruvchi muhim yo'nalish hayot sikli va doimiy daromad konsepsiyalaridir. F. Modigliani va R. Brumberg iste'molchi daromad va iste'molni butun hayot davri bo'yicha muvofiqlashtirishga intilishini asoslagan [13], M. Friedman esa joriy iste'molning vaqtinchalik daromadga ko'ra doimiy daromadga kuchliroq bog'liqligini ko'rsatgan [14]. A. Deaton qarz olish imkoniyati cheklangan sharoitda iste'molning joriy daromad tebranishlariga sezgirliги ortishini va aktivlar "buffer stock" vazifasini bajarishini ko'rsatgan [15].

G.S. Beckerning inson kapitali nazariyasi ta'lim va malakaga sarflarni kelajakdagi unumdorlik va daromadni oshiruvchi investitsiya sifatida asoslaydi [16]. P.-O. Gourinchas va J.A. Parker esa turli yosh, ta'lim va kasb guruhlari bo'yicha iste'mol hamda daromad profillarini o'rganib, yosh uy xo'jaliklarida ehtiyot jamg'armasi xatti-harakati, keyingi davrda esa pensiya uchun aktiv to'plash kuchayishini empirik ko'rsatgan [17]. J.Y. Campbell uy xo'jaligi moliyasini alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida tizimlashtirgan [18], P. Tufano esa consumer finance sohasini to'lovlar, riskni boshqarish, jamg'arish va qarz olish funksiyalarini birlashtiruvchi tizim sifatida tavsiflagan [19].

Qarzning salbiy oqibatlari xulq-atvor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan ham o'rganilgan. J. Gathergood Buyuk Britaniya ma'lumotlari asosida o'zini tuta bilish muammolari va moliyaviy savodxonlikning pastligi ortiqcha

qarzdorlik bilan bog'liqligini ko'rsatgan [20]. J. Zinman uy xo'jaligi qarzi bo'yicha nazariy va empirik adabiyotlarni umumlashtirib, qarz olish qarorlarida heterogenlik, narx, kreditga kirish imkoniyati va iste'molchi tanlovining muhimligini ta'kidlaydi [21]. A. Lusardi va P. Tufano qarz bo'yicha savodxonlikning pastligi yuqori xarajatli qarz mahsulotlaridan foydalanish hamda og'ir qarz yukini his etish bilan bog'liqligini aniqlagan [22].

Uzoq tarixiy ma'lumotlar asosidagi tadqiqotlar kredit siklining moliyaviy barqarorlik bilan bog'liqligini kuchliroq yoritadi. Ò. Jordà, M. Schularick va A.M. Taylor 17 ta rivojlangan iqtisodiyotning 1870-yildan boshlangan tarixiy ma'lumotlari asosida ipoteka kreditining kengayishi moliyaviy sikllar va inqirozlarning chuqurligi bilan bog'liqligini ko'rsatgan [23]. A. Mian, A. Sufi va E. Verner 30 mamlakat bo'yicha 1960-2012-yillar ma'lumotlarida uy xo'jaligi qarzining YaIMga nisbatan oshishi keyingi o'rta muddatda pastroq iqtisodiy o'sish va yuqoriroq ishsizlik bilan bog'liqligini aniqlagan [24].

Raqamli kreditlash adabiyoti kredit qarorlarida texnologiyaning axborot va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini ko'rsatadi. A. Fuster, M. Plosser, P. Schnabl va J. Vickery AQSh ipoteka bozorida texnologiyaga tayangan FinTech kreditorlari arizalarni an'anaviy kreditorlarga nisbatan qariyb 20 foiz tezroq qayta ishlashini va bu tezlik yuqoriroq defolt bilan birga kelmasligini aniqlagan [25]. T. Berg, V. Burg, A. Gombović va M. Puri oddiy raqamli izlar kredit byurosi skorlari bilan taqqoslanadigan prognoz axborotiga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan [26]. G. Cornelli va hammualliflar 79 mamlakat bo'yicha tuzilgan ma'lumotlar bazasida 2019-yilda FinTech va BigTech kreditlari birgalikda qariyb 800 mlrd AQSh dollariga yetganini qayd etgan [27].

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslarni kreditlashni izohlash uchun bitta nazariya yetarli emas. Vaqtlararo iste'mol, likvidlik cheklovlari, axborot

asimmetriyasi, xulq-atvor, moliyaviy barqarorlik va raqamli ma'lumotlar bir-birini to'ldiruvchi omillardir. Shu bilan birga, ushbu yo'nalishlarni O'zbekiston bank amaliyotining rasmiy qarz yuki ko'rsatkichlari bilan integratsiyalashgan holda talqin qilish hamda raqamli skoringni mas'uliyatli kreditlash tamoyillari bilan bog'lovchi yaxlit ta'rifni shakllantirish bo'yicha ilmiy bo'shliq mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, tarixiy-genetik, qiyosiy, tizimli va kontent-tahlil usullariga tayanadi. Tarixiy-genetik usul kredit haqidagi qarashlarning klassik siyosiy iqtisoddan zamonaviy household finance va FinTech tadqiqotlarigacha bo'lgan evolyutsiyasini izchil ko'rib chiqish uchun qo'llanildi. Qiyosiy tahlil orqali nazariyalarning kreditning resurslarni qayta taqsimlash, vaqtlararo iste'mol, axborot asimmetriyasi, moliyaviy barqarorlik va xulq-atvor omillariga bergan izohlari o'zaro taqqoslandi.

Kontent-tahlil doirasida monografiyalar, nufuzli ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar hamda Bank for International Settlements va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy materiallaridan foydalanildi. Manbalarni tanlashda birlamchi nashr yoki nashriyot/jurnalning rasmiy sahifasida tasdiqlanishi, bibliografik rekvizitlarning mavjudligi va matndagi muayyan fikrga bevosita aloqadorligi asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Statistik ko'rsatkichlar faqat Markaziy bankning rasmiy ma'lumotlari asosida keltirildi [1; 2; 28].

Nazariy umumlashtirish va induktiv-deduktiv yondashuv asosida jismoniy

shaxslarni bank kreditlashning takomillashtirilgan mualliflik ta'rifi shakllantirildi. Tadqiqotda empirik ekonometrik model qurish maqsad qilinmagan; shu sababli natijalar nazariy sintez va tekshirilgan ikkilamchi empirik dalillarni tizimlashtirish bilan chegaralanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Kredit nazariyalarining evolyutsiyasi kreditning iqtisodiy vazifasi haqidagi tasavvurlar bosqichma-bosqich kengayganini ko'rsatadi. Klassik yondashuvlarda kredit mavjud resurslarning harakatini tezlashtiruvchi va qayta taqsimlovchi vosita sifatida ko'rilgan [3; 4]. Kapital yaratish qarashlarida bank kreditining pul muomalasi va to'lov vositalari hajmiga faol ta'siri ajratib ko'rsatilgan [5; 6]. Neoklassik yondashuv esa foiz stavkasi va vaqtlararo tanlov orqali qarz olishning mikroiqtisodiy mexanizmini ochib bergan [7; 8].

Keynscha va monetar qarashlar kredit sharoitlarining yalpi talab, pul taklifi va makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini markazga olib chiqadi [9; 10]. Axborot asimmetriyasi nazariyasi bankning qarz oluvchini tanlash va riskni baholash faoliyatini tushuntirsa [11], moliyaviy beqarorlik yondashuvi kredit ekspansiyasini tizimli risk nuqtai nazaridan baholash zaruratini ko'rsatadi [12]. Zamonaviy xulq-atvor va raqamli kreditlash tadqiqotlari esa qarz oluvchining moliyaviy savodxonligi, o'zini boshqarish qobiliyati va raqamli ma'lumotlardan foydalanishni kredit qarorining ajralmas omillari sifatida ko'rsatmoqda [20; 22; 25-27].

1-jadval

Jismoniy shaxslarni kreditlashni izohlovchi asosiy nazariy yondashuvlar

Nazariy yondashuv	Asosiy vakillar	Asosiy mazmun	Jismoniy shaxslarni kreditlashdagi ahamiyati
Naturalistik yondashuv	A. Smith [3]; D. Ricardo [4]	Kredit mavjud kapitalning harakatini va qayta taqsimlanishini ta'minlaydi	Resurslarni qayta taqsimlash
Kapital yaratish yondashuvi	J. Law [5]; H.D. Macleod [6]	Bank krediti pul va to'lov vositalari hajmini kengaytirishi mumkin	Bank kreditining faol roli

Neoklassik yondashuv	<i>K. Wicksell [7]; I. Fisher [8]</i>	<i>Foiz va vaqtlararo tanlov jamg'arma, qarz va iste'mol qarorini bog'laydi</i>	<i>Kredit talabi va foiz mexanizmi</i>
Keynscha yondashuv	<i>J. M. Keynes [9]</i>	<i>Pul-kredit sharoitlari yalpi talab va iqtisodiy faollikka ta'sir qiladi</i>	<i>Makroiqtisodiy uzatish kanali</i>
Monetar yondashuv	<i>M. Friedman; A.J. Schwartz [10]</i>	<i>Pul-kredit omillari narxlar va iqtisodiy sikllar uchun muhim</i>	<i>Kredit ekspansiyasini makro nazorat qilish</i>
Axborot asimmetriyasi	<i>J. E. Stiglitz; A. Weiss [11]</i>	<i>Noaniq axborot sharoitida bank kreditni ratsionlashi mumkin</i>	<i>Skoring, saralash va monitoring</i>
Moliyaviy beqarorlik	<i>H. P. Minsky [12]</i>	<i>Uzoq barqarorlik davri moliyaviy tuzilmaning zaiflashuvini kuchaytirishi mumkin</i>	<i>Makroprudensial nazorat zarurati</i>
Xulq-atvor yondashuvi	<i>J. Gathergood [20]; A. Lusardi, P. Tufano [22]</i>	<i>Moliyaviy savodxonlik va o'zini boshqarish qarz yukiga ta'sir qiladi</i>	<i>Mas'uliyatli kreditlash</i>
Raqamli axborot yondashuvi	<i>A. Fuster va b. [25]; T. Berg va b. [26]</i>	<i>Texnologiya kredit jarayonini tezlashtiradi, raqamli izlar qo'shimcha axborot beradi</i>	<i>Raqamli skoring va avtomatlashtirish</i>

Jadvaldagi yondashuvlar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, zamonaviy chakana kreditlashning turli bosqichlarini izohlaydi. Qarz oluvchining kreditga ehtiyoji vaqtlararo iste'mol modeli bilan, bankning kredit berish qarori axborot asimmetriyasi bilan, kredit portfelining barqarorligi moliyaviy sikl nazariyalari bilan, zamonaviy skoring esa raqamli axborot yondashuvi bilan tushuntiriladi. Shu sababli jismoniy shaxslarni kreditlashni sintetik, ko'p omilli nazariy tizim sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Ilmiy adabiyotlarda "consumer finance", "household debt", "retail lending" va "consumer credit" tushunchalari o'zaro yaqin bo'lsa-da, ularning qamrovi aynan bir xil emas. P. Tufano consumer finance sohasida qarz olishni kelajakdagi resurslarni bugungi davrga ko'chirish funksiyasi sifatida ajratadi [19]. J. Zinman esa uy xo'jaligi qarzining miqyosi, tarkibi, kreditga kirish va qarz olish qarorlarining farqlanishini kengroq household debt doirasida tahlil qiladi [21]. Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, jismoniy shaxslarni bank kreditlash tushunchasi bank va qarz oluvchi o'rtasidagi kredit munosabatining o'ziga xos institutsional shakli sifatida aniqlashtirilishi lozim.

Mavjud nazariyalarni umumlashtirish natijasida quyidagi takomillashtirilgan ta'rif taklif etiladi: jismoniy shaxslarni bank

kreditlash — tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar va uy xo'jaliklarining iste'mol, uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash, tadbirkorlik va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun qaytarishlik, muddatlilik va haqlilik shartlari asosida mablag' taqdim etish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, unda kredit qarori qarz oluvchining daromadi, qarz yuki, kredit tarixi va to'lov qobiliyatini baholashga tayanadi hamda zamonaviy sharoitda raqamli identifikatsiya, avtomatlashtirilgan skoring va ma'lumotlarga asoslangan risk-boshqaruv vositalari orqali amalga oshiriladi.

Mazkur ta'rifning farqli jihati uchta elementni yagona tizimda birlashtirishidir: birinchidan, kreditning uy xo'jaligi ehtiyojlarini vaqtlararo moliyalashtirish funksiyasi [13–15]; ikkinchidan, bankning axborot asimmetriyasi sharoitida riskni baholash va qarz oluvchini saralash vazifasi [11]; uchinchidan, raqamli izlar va texnologiyaga tayangan kredit jarayonining kuchayib borishi [25–27].

Hayot sikli gipotezasiga ko'ra, ratsional uy xo'jaligi iste'molni butun hayot davomida nisbatan tekis taqsimlashga intiladi [13]. Yosh davrda joriy daromad kelajakdagi kutilayotgan daromaddan past bo'lsa, kredit kelajak daromadining bir qismini joriy iste'mol yoki uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirishga

ko'chirish imkonini beradi. Doimiy daromad gipotezasi ham iste'mol qarorlarida uzoq muddatli kutilayotgan daromadning rolini ta'kidlaydi [14].

Biroq qarz olish imkoniyati cheklangan holatda iste'mol joriy daromad tebranishlariga kuchliroq bog'lanadi. A. Deaton modeli likvidlik cheklovlari sharoitida aktivlar daromad shoklariga qarshi ehtiyot jamg'armasi vazifasini bajarishini ko'rsatadi [15]. Bank krediti mavjud bo'lganda ushbu cheklovlarning bir qismi yumshaydi; bu ayniqsa uy-joy, ta'lim yoki boshqa katta xarajatlarni joriy daromad bilan bir vaqtning o'zida qoplash imkoni bo'lmagan uy xo'jaliklari uchun muhim.

Inson kapitaliga investitsiyalar nuqtai nazaridan ta'lim uchun jalb etilgan kredit kelajakdagi unumdorlik va daromad salohiyatini oshirishga xizmat qilishi mumkin [16]. Gourinchas va Parker natijalari iste'mol va jamg'arma xatti-harakati yosh hamda kutilayotgan daromad profiliga qarab sezilarli o'zgarishini ko'rsatadi [17]. Shunday qilib, uy xo'jaligi kredit talabi quyidagi mantiqiy zanjir orqali izohlanadi:

- daromad va rejalashtirilgan xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik tafovut;
 - kreditga ehtiyoj;
 - bankning qarz oluvchi haqidagi axborotni baholashi;
 - kredit shartlarini belgilash;
- qarzni xizmat ko'rsatish va farovonlikka ta'sir.

Jismoniy shaxslarni kreditlashning iqtisodiy ta'siri bir yo'nalishli emas. Ijobiy tomondan, kredit iste'molni vaqt bo'yicha tekislash, uy-joy va ta'lim kabi uzoq muddatli aktivlarni moliyalashtirish, vaqtinchalik daromad shoklarini yumshatish va ayrim hollarda tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi [13-19]. Salbiy tomondan, qarz xizmatining daromadga nisbatan haddan tashqari oshishi majburiy xarajatlarni qisqartirishi, moliyaviy zo'riqish va defolt xavfini kuchaytirishi mumkin.

Xulq-atvor omillari bu xavfni kuchaytirishi mumkin. Gathergood moliyaviy savodxonlikning pastligi va o'zini boshqarish bilan bog'liq muammolar iste'mol kreditlari bo'yicha to'lov muammolari hamda subyektiv ortiqcha qarzdorlik bilan bog'liqligini ko'rsatgan [20]. Lusardi va Tufano qarz bo'yicha bilim darajasi past bo'lgan iste'molchilar yuqori xarajatli qarz usullaridan ko'proq foydalanishi va qarz yukini baholashda ko'proq qiyinchilikka duch kelishini aniqlagan [22].

Makro darajada kreditning tez kengayishi ham kelgusidagi zaifliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Jordà va hammualliflar uzoq tarixiy ma'lumotlarda ipoteka krediti va moliyaviy sikllar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi [23]. Mian, Sufi va Verner esa uy xo'jaligi qarzining YaIMga nisbatan o'sishi keyingi yillarda pastroq iqtisodiy o'sish va yuqoriroq ishsizlik bilan bog'liqligini aniqlagan [24]. Bu natijalar DTI, DSTI va LTV kabi makroprudensial vositalardan foydalanishning nazariy va empirik asosini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhiga ko'ra, 2024-yilda aholining umumiy qarz yuki (DSTI) o'rtacha 34 foizni tashkil etgan, DSTI ko'rsatkichi 50 foizdan yuqori bo'lgan qarzdorlarga to'g'ri keluvchi kreditlarning ulushi esa 40 foizga teng bo'lgan [28]. Ushbu ko'rsatkichlar chakana kreditlashda faqat kredit hajmini oshirish emas, balki qarz oluvchining jami qarz xizmatini barqaror boshqarish, kredit berishdan oldingi stress-baholash va mas'uliyatli kreditlash mezonlarini kuchaytirish muhimligini ko'rsatadi.

Raqamli transformatsiya jismoniy shaxslarni kreditlashda axborot yig'ish, identifikatsiya, skoring, qaror qabul qilish va monitoring jarayonlarini o'zgartirmoqda. Fuster va hammualliflar texnologiyaga tayangan FinTech ipoteka kreditorlarining arizalarni qariyb 20 foiz tezroq qayta ishlaganini, tezlik esa yuqoriroq defolt bilan

birga kelmaganini ko'rsatgan [25]. Bu natija kredit jarayonini avtomatlashtirish operatsion samaradorlikni oshirishi mumkinligini anglatadi, biroq mazkur natijani barcha kredit segmentlariga mexanik tarzda ko'chirish to'g'ri emas.

Berg va hammualliflarning tadqiqoti oddiy raqamli izlar iste'molchining defolt ehtimolini bashorat qilishda kredit byurosi skorlari bilan taqqoslanadigan axborotga ega bo'lishi va mavjud kredit byurosi ma'lumotlarini to'ldirishi mumkinligini ko'rsatadi [26]. Shu bilan birga, raqamli ma'lumotlardan foydalanish modelning tushuntiriluvchanligi, ma'lumotlar sifati, diskriminatsiya xavfi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi yangi boshqaruv vazifalarini keltirib chiqaradi.

Cornelli va hammualliflar tomonidan 79 mamlakat bo'yicha tuzilgan ma'lumotlar bazasi 2019-yilda FinTech kreditlari oqimi 223 mlrd, BigTech kreditlari esa 572 mlrd AQSh dollariga yetganini, ularning yig'indisi qariyb 800 mlrd dollarni tashkil etganini ko'rsatadi [27]. Bu tendensiya jismoniy shaxslarni kreditlash nazariyasiga "bank-qarz oluvchi" juftligidan tashqari platforma, alternativ ma'lumotlar va texnologik vositachilik elementlarini ham kiritishni talab qiladi.

O'tkazilgan tahlil natijasida jismoniy shaxslarni kreditlashning zamonaviy nazariy modeli besh o'zaro bog'liq blokdan iborat ekanligi aniqlandi: (1) uy xo'jaligining vaqtlararo iste'mol va daromad qarori; (2) likvidlik cheklovlari va kreditga kirish imkoniyati; (3) bankning axborot asimmetriyasi sharoitida saralash va riskni baholashi; (4) qarz yukining farovonlik va moliyaviy barqarorlikka ta'siri; (5) raqamli ma'lumotlar va avtomatlashtirilgan qaror texnologiyalari. Mazkur bloklar birgalikda ko'rilgandagina jismoniy shaxslarni kreditlashning iqtisodiy mohiyati to'liqroq ochiladi.

Shu jihatdan, mazkur maqolada taklif etilgan ta'rif kreditni shunchaki iste'molni

moliyalashtirish vositasi sifatida emas, balki qarz oluvchining kelajakdagi daromad oqimi, bankning risk bahosi, makroprudensial cheklovlar va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi dinamik iqtisodiy munosabat sifatida talqin etadi. Bu yondashuv nazariy tushunchani zamonaviy bank amaliyotining asosiy elementlari bilan muvofiqlashtiradi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, jismoniy shaxslarni kreditlash nazariyasi klassik resurslarni qayta taqsimlash qarashlaridan vaqtlararo iste'mol, axborot asimmetriyasi, moliyaviy beqarorlik, xulq-atvor va raqamli axborot yondashuvlarigacha rivojlangan. Shu sababli mazkur sohani bitta nazariya doirasida emas, balki o'zaro to'ldiruvchi nazariyalar tizimi sifatida tahlil qilish ilmiy jihatdan asosli.

Ikkinchidan, jismoniy shaxslarni bank kreditlashning takomillashtirilgan ta'rifi kreditning uch asosiy tomonini – uy xo'jaligi ehtiyojlarini vaqtlararo moliyalashtirish, bankning kredit riskini baholash va raqamli texnologiyalar asosida kredit qarorini tashkil etish – yagona konseptual tizimda birlashtiradi. Bu ta'rif raqamli skoring va muqobil ma'lumotlarning kuchayib borayotgan rolini hisobga olishi bilan an'anaviy ta'riflardan farqlanadi.

Uchinchidan, banklar chakana kredit mahsulotlarini ishlab chiqishda faqat mahsulot bo'yicha to'lov miqdorini emas, qarz oluvchining barcha kredit majburiyatlari bo'yicha jami qarz xizmatini baholashga ustuvor ahamiyat berishi lozim. Markaziy bank ma'lumotlarida 2024-yil uchun o'rtacha DSTI 34 foiz bo'lgani va kreditlarning sezilarli qismi yuqori DSTI guruhiga to'g'ri kelgani [28] qarz yukini stress-senariylar asosida baholash, daromad pasayishi va foiz xarajatlari o'zgarishiga sezgirlikni oldindan tekshirish zaruratini kuchaytiradi.

To'rtinchidan, raqamli skoringni rivojlantirishda tezkorlikning o'zi yetarli

mezon bo'la olmaydi. Raqamli izlar va alternativ ma'lumotlardan foydalanishda modelning tushuntiriluvchanligi, ma'lumot sifati, audit izi, xatolik va diskriminatsiya xavfini nazorat qilish hamda qarz oluvchiga kredit qarorining asosiy omillarini tushunarli shaklda yetkazish mexanizmlarini shakllantirish maqsadga muvofiq [25; 26].

Beshinchidan, keyingi tadqiqotlarda O'zbekiston banklari kesimida jismoniy

shaxslar kredit portfelining turi, foiz stavkasi, muddat, qarz oluvchining daromad guruhi va DSTI darajasi bo'yicha panel ma'lumotlar asosida empirik baholash o'tkazish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv nazariy jihatdan aniqlangan ijobiy va salbiy kanallarning mahalliy sharoitda qaysi omillar orqali kuchliroq namoyon bo'lishini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i to'g'risida kreditlar turlari bo'yicha ma'lumot — Toshkent, 2020. — URL: <https://cbu.uz/oz/statistics/bankstats/275985/>
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Tijorat banklarining kredit va depozitlar to'g'risida 2024-yil 1-fevral holatiga ma'lumot — Toshkent, 2024. — URL: <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1613177/>
3. Smith A. *The Wealth of Nations*. — New York: Bantam Dell, 2003. — 1264 p.
4. Ricardo D. *The Principles of Political Economy and Taxation*. — Mineola, NY: Dover Publications, 2004. — 300 p.
5. Law J. *Money and Trade Considered: With a Proposal for Supplying the Nation with Money*. — Edinburgh: Heirs and Successors of Andrew Anderson, 1705. — 120 p.
6. Macleod H. D. *The Theory and Practice of Banking*. Vol. 1. — London: Longman, Brown, Green, and Longmans, 1855. — 543 p.
7. Wicksell K. *Interest and Prices: A Study of the Causes Regulating the Value of Money* / transl. R. F. Kahn. — London: Macmillan for the Royal Economic Society, 1936. — 219 p. (Original work: 1898).
8. Fisher I. *The Theory of Interest, as Determined by Impatience to Spend Income and Opportunity to Invest It*. — New York: The Macmillan Company, 1930. — 566 p.
9. Keynes J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. — London: Macmillan, 1936. — 403 p.
10. Friedman M., Schwartz A. J. *A Monetary History of the United States, 1867–1960*. — Princeton: Princeton University Press, 1963. — 860 p.
11. Stiglitz J. E., Weiss A. *Credit Rationing in Markets with Imperfect Information* // *The American Economic Review*. — 1981. — Vol. 71, No. 3. — P. 393–410.
12. Minsky H. P. *Stabilizing an Unstable Economy*. — New Haven: Yale University Press, 1986. — 353 p.
13. Modigliani F., Brumberg R. *Utility Analysis and the Consumption Function: An Interpretation of Cross-Section Data* // *Post-Keynesian Economics* / ed. K. K. Kurihara. — New Brunswick, NJ: Rutgers University Press, 1954. — P. 388–436.
14. Friedman M. *A Theory of the Consumption Function*. — Princeton: Princeton University Press, 1957. — 243 p.
15. Deaton A. *Saving and Liquidity Constraints* // *Econometrica*. — 1991. — Vol. 59, No. 5. — P. 1221–1248.
16. Becker G. S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. — New York: National Bureau of Economic Research; Columbia University Press, 1964. — 187 p.

17. Gourinchas P.-O., Parker J. A. Consumption Over the Life Cycle // *Econometrica*. — 2002. — Vol. 70, No. 1. — P. 47–89. — DOI: 10.1111/1468-0262.00269.
18. Campbell J. Y. Household Finance // *The Journal of Finance*. — 2006. — Vol. 61, No. 4. — P. 1553–1604. — DOI: 10.1111/j.1540-6261.2006.00883.x.
19. Tufano P. Consumer Finance // *Annual Review of Financial Economics*. — 2009. — Vol. 1. — P. 227–247. — DOI: 10.1146/annurev.financial.050808.114457.
20. Gathergood J. Self-Control, Financial Literacy and Consumer Over-Indebtedness // *Journal of Economic Psychology*. — 2012. — Vol. 33, No. 3. — P. 590–602. — DOI: 10.1016/j.joep.2011.11.006.
21. Zinman J. Household Debt: Facts, Puzzles, Theories, and Policies // *Annual Review of Economics*. — 2015. — Vol. 7. — P. 251–276. — DOI: 10.1146/annurev-economics-080614-115640.
22. Lusardi A., Tufano P. Debt Literacy, Financial Experiences, and Overindebtedness // *Journal of Pension Economics & Finance*. — 2015. — Vol. 14, Special Issue 4. — P. 332–368.
23. Jordà Ò., Schularick M., Taylor A. M. The Great Mortgaging: Housing Finance, Crises and Business Cycles // *Economic Policy*. — 2016. — Vol. 31, No. 85. — P. 107–152. — DOI: 10.1093/epolic/eivo17.
24. Mian A., Sufi A., Verner E. Household Debt and Business Cycles Worldwide // *The Quarterly Journal of Economics*. — 2017. — Vol. 132, No. 4. — P. 1755–1817. — DOI: 10.1093/qje/qjx017.
25. Fuster A., Plosser M., Schnabl P., Vickery J. The Role of Technology in Mortgage Lending // *The Review of Financial Studies*. — 2019. — Vol. 32, No. 5. — P. 1854–1899. — DOI: 10.1093/rfs/hhz018.
26. Berg T., Burg V., Gombović A., Puri M. On the Rise of FinTechs: Credit Scoring Using Digital Footprints // *The Review of Financial Studies*. — 2020. — Vol. 33, No. 7. — P. 2845–2897. — DOI: 10.1093/rfs/hhz099.
27. Cornelli G., Frost J., Gambacorta L., Rau R., Wardrop R., Ziegler T. Fintech and Big Tech Credit: A New Database // *BIS Working Papers*. — 2020. — No. 887. — 35 p. — URL: <https://www.bis.org/publ/work887.pdf>
28. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhi — Toshkent, 2025. — B. 49. — URL: https://cbu.uz/upload/medialibrary/d8d/fj3q5m7vchkpht8xlgyn2im1065i77rj/2024_yil-uchun-moliyaviy-barqarorlik-sharhi.pdf